

Tanlov asosida №79014 lot bo'yicha "Moliyachi ma'lumotnomasi" byulletenining  
2022-yil 1-12-sonlarini oyma-oy chop etish xizmatini xarid qilish

Toshkent sh.

“\_16\_” may 2022-y.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi moliya organlari hamda budjet tashkilotlarining moliya-hisob bo'linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash O'quv markazi (keyingi o'rnlarda "Buyurtmachi" deb ataladi) nomidan direktori I.G.Xamidova Nizom asosida ish yurituvchi bir tomondan va ikkinchi tomondan "Invest Book" MCHJ (keyingi o'rnlarda "Bajaruvchi" deb ataladi) nomidan direktor B.SH. Zaynudinov o'z Nizomga asosan ish yurituvchi o'rtasida ushbu shartnomani tuzdik.

### 1. Shartnoma predmeti

1.1. "Bajaruvchi" ushbu shartnomaga muvofiq "Buyurtmachi" ko'rsatmasiga ko'ra mazkur shartnomaning 2-bandida ko'rsatilgan byulleten sonlarini: bichimlari  $60 \times 84 \frac{1}{8}$ , matn ranglari 4+4, matn uchun 80 gr/m<sup>2</sup> dan kam bo'limgan ofset qog'ozi, PNL laminatsiya muqova, rangi 4+4, muqova uchun 200 gr/m<sup>2</sup> dan kam bo'limgan silliqlangan (melovanni) qog'ozi hamda muqovalash yumshoq termokley ko'rsatkichlar asosida chop etish majburiyatini oladi, "Buyurtmachi" esa bajarilgan ish uchun belgilangan miqdorda xaq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

1.2. Nashr etilgan mahsulot Davlat standartlariga muvofiq bo'lishi shart.

### 2. Shartnoma bahosi

Nº	Nashr nomi	O'lcov birl.	Hajmi (bet)	Nashr nusxasi	I nusxa nashrnning QQS bilan narxi (so'm)	QQS bilan umumiyl summasi (so'm)
1	"Moliyachi ma'lumotnomasi" bichimlari $60 \times 84 \frac{1}{8}$ , matn ranglari 4+4, matn uchun 80 gr/m <sup>2</sup> ofset qog'ozi, PNL laminatsiya muqova, rangi 4+4, muqova uchun 200 gr/m <sup>2</sup> silliqlangan (melovanni) qog'ozi hamda muqovalash yumshoq termokley	nusxa	96	51600	19200	990 720 000
	JAMI					990 720 000

2.1. Shartnomaning umumiyl summasi qo'shilgan qiymat solig'i bilan 990 720 000 (**to'qqiz yuz to'qson million etti yuz yigirma ming**) QQS bilan so'mni tashkil qiladi.

### 3. To'lov shartlari

3.2. "Buyurtmachi" shartnomada ko'rsatilgan narx bo'yicha umumiyl summaning 30%ini oldindan to'laydi. Oldindan to'langan summaga teng hajmdagi ishlar bajarilgandan so'ng, qolgan 70% buyurtmaning bajarilgan qismi uchun shartnomada belgilangan narx bo'yicha hisob-faktura va dalolatnoma asosida qabul qilib olingan kundan 5 bank ish kuni ichida amalga oshirib boriladi.

3.3. Haq to‘lash shakli Moliya vazirligi G‘aznachiligi orqali “pul o‘tkazish” yo‘li bilan amalga oshiriladi. Shartnoma umumiy miqdorining 30% miqdorida oldindan to‘lov G‘aznachilikda ro‘yxatdan o‘tganidan keyin 10 bank kuni ichida amalga oshiriladi.

#### **4. Majburiyatlarni bajarish muddati**

4.1. “Bajaruvchi” ushbu shartnomaning 1.1-bandida belgilangan majburiyatlarni 30% to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng nashrning har bir sonining elektron original-maket varianti topshirilgan kundan boshlab 5 kalendar kuni hisobida bajarishi shart.

4.2. Shartnoma 2022-yil 31-dekabrga qadar amalda bo‘ladi.

#### **5. Tomonlar majburiyatlari**

##### **5.1. “Bajaruvchi ”ning majburiyatlari:**

5.1.1. Tayyor mahsulotning shartnoma shartlariga mosligini nazoratdan o‘tkazish maqsadida “Bajaruvchi” nashrning elektron original-maket asosida ichki matn qismi 80 gr/m<sup>2</sup> dan kam bo‘limgan ofset qog‘ozi, muqova PNL laminatsiya, 200 gr/m<sup>2</sup> dan kam bo‘limgan silliqlangan (melovanniy) qog‘ozi va muqovalash termokley bilan yelimlangan tayyor namuna (signal) nusxasini “Buyurtmachi”ga ko‘rsatib uning roziligini olgandan keyin nashrning har bir soni uchun belgilangan tirajni tayyorlashga kirishadi. Nashrning namuna (signal) nusxasiga “Buyurtmachi” vakili imzo qo‘yadi va muhr bilan tasdiqlaydi.

5.1.2. Tayyor mahsulotni “Buyurtmachi”ga ushbu shartnoma talablari, davlat standartiga hamda boshqa amaldagi talablarga muvofiq holda belgilangan muddatda topshiradi.

5.1.3. Byulleten sonini chop etishga tayyorlash jarayonida natijaning salbiy bo‘lishi mumkinligi yoki uning maqsadga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda topshirilgan kuni va vaqtidan 2 (ikki) soatlik muddatda “Buyurtmachi”ga yozma ravishda xabardor qilinib, nashr ishi to‘xtatiladi va tegishli tuzatishlar kiritilgandan so‘ng davom ettiriladi.

5.1.4. Nashr etish bo‘yicha topshirig‘idan yoki shartnomada belgilangan boshqa parametrlardan chekinish natijasida yuzaga kelgan kamchiliklarni “Bajaruvchi” o‘z kuchi va o‘z mablag‘lari hisobidan bartaraf etadi.

5.1.5. “Bajaruvchi” majburiy yuboriladigan nusxalarini belgilangan qoidaga muvofiq (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida matbaa faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida” 1998-yil 2-fevraldaggi 52-sod qarorining ilovasi asosida) tegishli idoralarga yuborishni o‘z zimmasiga oladi. Majburiy nusxalar chop etilgan byulletenning har bir soni adadidan ro‘yxati taqdim etilgan holda “Buyurtmachi” hisobiga ajratiladi.

5.1.6. “Bajaruvchi” nashr sonining har bir tayyor nusxalarini O‘zbekiston pochtasi “Xalqaro pochtamt” filialining jo‘natmalar omboriga 1 kun muddatda yetkazib beradi.

5.1.7. Narxning haqiqiy xarajatlardan kelib chiqqanligiga “Bajaruvchi” bevosita javob beradi.

5.1.8. “Bajaruvchi” tomonidan ruxsatsiz shartnomada belgilangan parametrlardan qo’shimcha adadda chop etish yoki hajmini o’zgartirish hamda chakana savdoga chiqarish taqiqlanadi.

## 5.2. “Buyurtmachi”ning majburiyatları

5.2.1. Nashrning har bir tayyor bo’lgan son original-maketini elektron variantda adadi ko’rsatilgan holda topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida topshiradi. Chop etish jarayonini kuzatib borish va nazorat qilish maqsadida o’z vakilini matbaa korxonasiiga yuboradi.

5.2.2. “Buyurtmachi” mazkur shartnoma shartlarida belgilangan xizmatlar uchun shartnomada ko’rsatilgan muddatda to’lovni amalga oshiradi.

5.2.3. Tayyor mahsulotni ushbu shartnomada nazarda tutilgan muddatda va tartibda qabul qilib oladi.

## 6. Tomonlarning javobgarligi

6.1. “Bajaruvchi” shartnomada belgilangan byulleten sonlarini o’z vaqtida yetkazib bermagan taqdirda, har bir kechiktirilgan kalender kun uchun byulleten sonlarini chop etish umumiylashtirish 0,5% miqdorida jarima to’laydi, lekin jarima miqdori umumiylashtirish 50% dan oshib ketmasligi lozim.

6.2. “Buyurtmachi” o’z vaqtida to’lovlarini “Bajaruvchi” hisobraqamiga o’tkazib bermagan taqdirda, har bir kechiktirilgan bank ish kuni uchun o’tkazilmagan to’lovlar bahosining 0,4% miqdorida jarima to’laydi, lekin jarima miqdori o’tkazilmagan to’lovlar umumiylashtirish 50% dan oshib ketmasligi lozim.

6.3. Shartnomaga rioya qilmagan tomon amaldagi qonunlarga ko’ra yetkazilgan zararni qoplashni o’z zimmasiga oladi.

6.4. Mahsulot Davlat standarti talablariga rioya qilinmay chop etilgan taqdirda “Buyurtmachi” ushbu shartnomada belgilangan qiymatni to’lamasdan, mahsulotni qabul qilib olishdan bosh tortish huquqiga ega. Shu bilan birga “Bajaruvchi” tegishli standart va sifatga ega bo’lmagan mahsulot qiymatining 20% miqdorida jarima to’laydi.

6.5. Penya yoki jarima to’lanishi tomonlar majburiyatlarini bajarish yoki huquq buzilishlarini bartaraf qilishdan ozod qilmaydi.

## 7. Fors-major holatlari

7.1. Tomonlardan hech biri boshqa tomonning oldida shartnoma bo’yicha olgan majburiyatlarini tomonlarning erki va istagidan tashqari paydo bo’lgan va ularni oldindan ko’ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo’lmagan holatlarda bajarmaganliklari uchun javobgar bo’lmaydi. Bunday hollar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar 2 (ikki) kunlik muddat ichida yozma xabardor qilinishi shart.

## 8. Nizolarni hal qilish tartibi

8.1. Tomonlar o’rtasida shartnoma bo’yicha yoki u bilan bog’liq holda paydo bo’ladigan barcha nizolar yoki kelishmovchiliklar o’zaro muzokaralar yo’li bilan hal qilinadi.

8.2. Kelishmovchiliklarni muzokalar yo‘li bilan hal qilinmagan taqdirda, ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko‘riladi.

### **9. Shartnomaga qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritish tartibi**

9.1. Shartnomaga kiritiladigan har qanday qo‘srimcha va o‘zgartirishlar yozma ravishda rasmiylashtirilib, har ikkala tomon imzolagan hollardagina qonuniy kuchga ega bo‘ladi.

9.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish tomonlarning kelishuvi bo‘yicha yoxud O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha yetkazilgan zararlarni qoplash yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin.

9.3. Shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon bu haqda ikkinchi tomonga ikki oy oldin yozma xabarnoma yuboradi.

### **10. Boshqa shartlar**

10.1. Shartnomaga imzolangan kundan boshlab qonuniy kuchga kirgan hisoblanadi.

10.2. Shartnomaga bir xil kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzilgan.

### **11. Tomonlarning yuridik manzili va to‘lov ma’lumotlari**

«Buyurtmachi»

«Bajaruvchi»

O‘zbekiston Respublikasi

Moliya vazirligi huzuridagi moliya organlari  
hamda budjet tashkilotlarining moliya-hisob  
bo‘linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta  
tayyorlash O‘quv markazi

Toshkent sh. Mirzo Ulug‘bek tumani,  
Darxoncepta 7.  
Telefon: 71-239-19-18, 71-239-97-99  
Indeks: 100052  
Sh/x: 400110860262667096200092001  
MFO 00014 STIR 300529638 OKED 85590:  
Moliya vazirligi G‘aznachiligi  
X/r: 23402000300100001010  
KKM Markaziy bank Toshkent sh.,  
Bosh boshqarmasi  
MFO: 00014, STIR: 201122919,



Direktor

I. Xamidova

Bosh buxgalter

S. Mirzayev

“INVEST BOOK”

MCHJ

Toshkent sh. Uchtepa tumani,  
Foziltepa ko‘chasi, 12 B uy.  
Telefon: 71-272-03-42, 90-958-23-13  
Indeks: 100130  
H/r: 2020 8000 1009 6697 2001  
TIF “Milliy bank” Uchtepa filiali  
MFO 00918  
STIR: 305 970 088  
OKED 17920

Elektron pochta: invest\_book@mail.ru

Direktor

B.SH. Zaynutdinov

Bosh buxgalter

M.T. Saidmaxmudova



O'zbekiston Respublikasi  
Toshkent shahar  
“SABR ISHONCH”  
advokatlik firmasi



Республика Узбекистан  
город Ташкент  
Адвокатская фирма  
“САБР ИШОНЧ”

Индекс: Toshkent shahar, Chilonzor tumani, 6 mavze, 60 uy, 14 honadon. Telefon: (71) 2733900, (99) 8560952

2022 йил “16” май № 01-08/420-сон

## ЮРИДИЧЕСКОЕ ЗАКЛЮЧЕНИЕ

«О соответствии Законодательству Республики Узбекистан хозяйственного договора».

Рассмотрев в соответствии со статьей 21 Закона Республики Узбекистан «О договорно-правовой базе деятельности хозяйствующих субъектов», представленный мне договор № 20233 от 16 мая 2022 года между ООО «INVEST BOOK» с одной стороной именуемый «Исполнитель» и Узбекистон Республикаси Молия вазирлиги хузуридаги молия органлари хамда бюджет ташколотларининг молия –хисоб булинмаларининг ходимларин тайёрлаш ва кайта тайёрлаш укув маркази, именуемый «Заказчик» считаю что:

1. Все условия, предусмотренные в Договоре, соответствуют требованиям статей № 10-14 Закон Республики Узбекистан «О договорно-правовой базе деятельности хозяйствующих субъектов» а также главам 26-27 и ст.ст. 353 - 385 Гражданского Кодекса Республики Узбекистан.

2. Порядок разрешения возможных споров между сторонами, а также меры ответственности сторон, за неисполнение и ненадлежащее исполнение Договора, определены правильно и соответствуют Закону РУз “О договорно-правовой базе деятельности хозяйствующих субъектов” и положениям ГК РУз.

3. Предмет Договора определен в соответствии с требованиями ст.ст. 313-316 ГК РУз. Согласно ч.2 ст.10 Закона Р.У. “О договорно-правовой базе деятельности хозяйствующих субъектов”

Таким образом, считаю, что условия Договора не противоречат требованиям действующего законодательства Республики Узбекистан.

В ходе исполнения настоящего договора адвокатура ответственности не несет.

Адвокат



К.К.Султанов

1639286



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

## GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

**"INVEST BOOK" Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'satilgan holdagi to'lq nomi)

**"INVEST BOOK" MChJ**

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

11.01.2019

665234

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR):

305970088

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:


Toshkent shahri, Uchtepa tumani, FOZILTEPA KO'CHASI, 12B-UY,

Guvohnoma:

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, DAVLAT XIZMATLARI  
MARKAZI

tomonidan  
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'lq nomi):





**“Tasdiqlayman”**

**O‘zbekiston Respublikasi**

**Moliya vazirligi huzuridagi**

**O‘quv markazi direktor o‘rinbosari –**

**Xarid komissiya raisi**

**J. Hamidullayev**



**“Moliyachi ma’lumotnomasi” byulletenining 2022-yil 1-12-sonlarini oyma-oy chop etish  
bo‘yicha 2022-yil 11-may kuni №79014-sonli lot bo‘yicha www.etender.uzex.uz axborot  
portalida elektron tartibda o‘tkazilgan hamda tizim tomonidan onlayn baholangan tanlash  
bayonnomasining muhokamasi to‘g‘risida xarid komissiyasi yig‘ilishining**

**BAYONNOMASI №2**

Toshkent shahri

2022-yil 16-may

Raislik qildi:

Xarid komissiya raisi J. Hamidullayev

Qatnashdilar:

komissiya a’zolari (ro‘yxati bo‘yicha)

A. Akramov, B. Atadjanov, R. Bakiyeva, Sh. Qurbonov,

**Kun tartibi:**

1. Moliya vazirligi huzuridagi moliya organlari hamda budget tashkilotlarining moliya-hisob bo‘linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash O‘quv markazining (keyingi o‘rnarda- O‘quv markazi) “Moliyachi ma’lumotnomasi” byulletenining 2022-yil 1-12-sonlarini oyma-oy chop etish bo‘yicha 2022-yil 11-may kuni №79014-sonli lot bo‘yicha www.etender.uzex.uz axborot portalida elektron tartibda o‘tkazilgan hamda tizim tomonidan onlayn baholangan tanlash bayonnomasini muhokama qilish.

Mazkur masala yuzasidan Xarid komissiya raisi J. Hamidullayev so‘zga chiqib quyidagilarni ma’lum qildi:

O‘quv markazining “Moliyachi ma’lumotnomasi” byulletenining 2022-yil 1-12-sonlarini oyma-oy chop etish bo‘yicha 2022-yil 11-may kuni №79014-sonli lot bo‘yicha www.etender.uzex.uz axborot portalida o‘tkazilgan tanlash natijalari bayonnomasi O‘zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi O‘RQ-684-son “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunining 62-moddasiga binoan davlat xaridlaring elektron tizimiga muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirilganligini, muhokamaga qo‘ylgan masala yuzasidan 2 (ikki) ish kuni davomida mazkur tanlashda qatnashgan ikkita ishtiropchi “INVEST BOOK” mas’uliyati cheklangan

jamiyati va "BIZNES POLIGRAF PRINT" MCHJ lar tomonidan hech qanday e'tirozlar bildirilmaganligini hamda birorta ham murojaatlar kelib tushmaganligini qayd etdi.

Shuningdek, xarid komissiyasi a'zolarining mazkur №79014-soni lot ishtirokchilari bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud emasligi, O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi O'RQ-684-soni "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 23-moddasiga ko'ra, ishtirokchi va uning affillangan shaxsi mazkur №79014-soni lotda ishtirok etmayotganligini, ma'lumotlar www.stat.uz sahifasi orqali tekshirilganligini aytib o'tdi.


Mazkur lot bo'yicha tanlash ishtirokchilarining takliflari www.etender.uzex.uz tizim tomonidan onlayn baholash natijasiga ko'ra "INVEST BOOK" mas'uliyati cheklangan jamiyati g'olib bo'lganligi to'g'risida ma'lumot berib o'tildi.

**Yuqoridagilardan kelib chiqib, Xarid komissiyasi **QAROR QILADI:****

1. O'quv markazining "Moliyachi ma'lumotnomasi" byulletenining 2022-yil 1-12-sonlarini oyma-oy chop etish bo'yicha 2022-yil 11-may kuni №79014-soni lot bo'yicha www.etender.uzex.uz axborot portalida elektron tartibda o'tkazilgan tanlash hamda tizim tomonidan onlayn baholash natijasiga ko'ra "INVEST BOOK" mas'uliyati cheklangan jamiyati tanlov g'olib deb topilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. O'quv markazi "Moliyachi ma'lumotnomasi" byulletenining 2022-yil 1-12-sonlarini oyma-oy chop etish bo'yicha "INVEST BOOK" mas'uliyati cheklangan jamiyati bilan belgilangan tartibda shartnoma tuzish tavsiya etilsin.

**Xarid komissiya a'zolari:**


A. Akramov



---

(imzo)


R. Bakiyeva



---

(imzo)


B. Atadjanov



---

(imzo)


Sh. Qurbonov



---

(imzo)


Sh. Mirzaxidova



*Kasallik vazogasi*

(imzo)


A. Babayev



*Kasallik vazogasi*

(imzo)

**Xarid komissiyasi kotibi:**



N. Yuldashev